



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TARIXIY ROMANLARDA SAROY AYOLLARIGA YOZUVCHI MUNOSABATI

Usmanova Sevara Sultanovna

Fargʻona davlat universiteti, dotsent (DSc)

Annotatsiya

Mazkur maqola Oʻzbekiston va Markaziy Osiyo tarixida muhim oʻrin tutgan temuriylar sulolasiga mansub saroy ayollari — malikalar, xos kanizlar va nufuzli xonimlarning tarixiy manbalar hamda badiiy adabiyotdagi tasvirini ilmiy tahlil qilishga bagʻishlangan. Tadqiqotda Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai saʼdayin va majmai baxrayn”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Klavixoning “Samarqandagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi” kabi birlamchi manbalar, shuningdek zamonaviy badiiy-ilmiy asarlar qiyosiy usulda oʻrganiladi. Tahlil natijalari Bibixonim (Saroymulk xonim), Gavharshodbegim va Milkat ogʻa kabi malikalarning davlat boshqaruvi, maʼrifat va bunyodkorlik faoliyatidagi muhim rolini koʻrsatadi, biroq ularning obrazlari koʻpincha qisqa va fragmentar tarzda yoritilganligi aniqlanadi. Shuningdek, maqolada temuriy malikalar haqidagi tadqiqotlarning hali yetarlicha oʻrganilmagan yoʻnalishlari ham belgilab beriladi.

Kalit soʻzlar: temuriy malikalar, saroy ayollari, tarixiy roman, Gavharshodbegim, Bibixonim, Milkat ogʻa, tarixiy manbalar, badiiy adabiyot, Markaziy Osiyo tarixi.

ОТНОШЕНИЕ АВТОРА К ПРИДВОРНЫМ ЖЕНЩИНАМ В ИСТОРИЧЕСКИХ РОМАНАХ

Усманова Севара Султановна

Ферганский государственный университет, доцент (DSc)

Аннотация

Данная статья посвящена научному анализу изображения придворных женщин тимуридской династии — цариц, приближённых наложниц и влиятельных дам — в исторических источниках и художественной литературе. В исследовании сравнительным методом рассматриваются первичные источники, такие как «Матлаи саʼдайн ва маджмай бахрайн» Абдурраззака Самарканди, «Зафарнаме» Шарафиддина Али Язди, дневник путешествия Клавиho в Самарканд ко двору Амира Темура, а также современные художественно-научные произведения. Результаты показывают, что такие фигуры, как Биbihаным (Сароймульк ханум), Гавхаршодбегим и Милькат ага, играли значительную роль в государственном управлении, просветительской и строительной деятельности, однако их образы в исторических источниках часто представлены кратко и фрагментарно. Также обозначены недостаточно изученные аспекты темы тимуридских цариц.

Ключевые слова: тимуридские царицы, придворные женщины, исторический роман, Гавхаршодбегим, Биbihаным, Милькат ага, исторические источники, художественная литература, история Центральной Азии.

AUTHOR'S ATTITUDE TOWARD COURT WOMEN IN HISTORICAL NOVELS

Usmanova Sevara Sultanovna

Fergana State University, Associate Professor (DSc)

Abstract

This article is devoted to the scientific analysis of the representation of court women of the Timurid dynasty—queens, elite concubines, and influential noblewomen—in historical sources and literary works. The study employs a comparative method to examine primary sources such as Abdurazzoq Samarqandi's “Matlai Saʼdayn wa Majmai Baxrayn,” Sharafiddin Ali Yazdi's

“Zafarnama,” and Clavijo’s travel diary to Amir Temur’s court in Samarkand, as well as modern literary and scholarly works. The findings reveal that figures such as Bibikhanym (Saroymulk khanum), Gavharshodbegim, and Milkat agha played significant roles in governance, education, and construction activities; however, their representation in historical sources is often brief and fragmentary. The article also highlights underexplored areas in the study of Timurid queens.

Keywords: Timurid queens, court women, historical novel, Gavharshodbegim, Bibikhanym, Milkat agha, historical sources, literature, Central Asian history.

Kishilik shakllanib, ilmu irfonga qadam qo‘ygandan beri ijtimoiy faoliyatning hech bir sohasi yo‘qki, unda ayollarning ham nomi zikr etilmasin. Bu gap Sharq ayollariga ham butkul tegishli. Tarixiy manbalarda nomlari tilga olingan ayollar orasidan yetishib chiqqan davlat arboblari, otashin vatanparvarlar, ilm-ma‘rifatni yuksak qadrlagan mashhur olimlar, so‘z san‘atining iftixori bo‘lgan iste‘dodli shoirlalar fikrimizning yorqin dalilidir. Islom tamadduni keng tarqalgan Sharq mamlakatlarida shariat va din hech qachon ayollarning ma‘rifatga, ilm olishga intilishini cheklab qo‘ymagan [1].

Xalqimiz tarixining eng nurafshon davri – temuriylarga daxldor bo‘lgan manbalar bir muncha keng o‘rganilmoqda hamda bu davrga oid ilmiy va badiiy asarlar dunyo yuzini ko‘rmoqda. Biroq shu davrning sirli va kam tadqiq etilgan qirrasini tashkil etuvchi saroy ayollari – malikalar, xos kanizlar va nufuzli xonimlarning taqdiri, ularning davlat va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki yetarlicha o‘rganilmagan. Bizgacha yetib kelgan yozma manbalarda oliy tabaqaga mansub ayollarning hayoti va faoliyati butun tafsilotlari bilan ochiq yoritilmagan bo‘lsa-da, ulardan terib olingan ma‘lumotlar yuqori tabaqa xonimlarining quvonch va tashvish, dabdaba va xo‘rlik, obro‘-e‘tibor va zabunlikka to‘la taqdirini yoritish imkonini beradi [2], [3].

Ushbu maqolaning maqsadi – temuriylar davri saroy ayollarining tarixiy manbalarda va badiiy adabiyotda aks ettirilish xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish, ularning davlat boshqaruvida, ma‘rifat va madaniyat rivojidadagi hissasini yoritish hamda bu sohadagi tadqiqot bo‘shliqlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, istiqlol yillarida O‘zbekiston tarixining kam o‘rganilgan sahifalarini yoritishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ulkan markazlashgan davlat asoschisi Amir Temurning hukmronlik davrini, sulola vakillarining taqdirini asl manbalar asosida o‘rganish bugungi kunda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Saroy ayollari mavzusini yorituvchi manbalar bir necha guruhga bo‘linadi: birlamchi tarixiy manbalar, ikkilamchi ilmiy tadqiqotlar va badiiy asarlar. Rizouddin Faxriddin o‘g‘lining “Mashhur xotunlar” asari 550 nafar mashhur ayolning tarixini qamrab olgan tazkira bo‘lib, Sharq xalqlari tarixida iz qoldirgan shoirlalar, mudarrisalar, faqihalar va davlat arboblarning nomlarini o‘z ichiga oladi. Unda, masalan, Bag‘doddagi yirik madrasada mudarrislik qilgan Shaxda va “Sit al-quddat” (shariat qozisi) unvoniga sazovor bo‘lgan Uzasira kabi o‘rta asr ayollari haqida qimmatli ma‘lumotlar berilgan.

Temuriylar davriga oid asosiy birlamchi manbalardan biri – Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari bo‘lib, unda Amir Temurning harbiy yurishlari va davlat qurilishi jarayonlari tasvirlanadi [5]. Yana bir muhim manba – Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari bo‘lib, u temuriylar tarixini yanada batafsil yoritadi [6]. Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” asari esa Bibixonimning fojiali taqdiri haqida noyob ma‘lumot beruvchi manbadir [7].

Ispaniyalik elchi Rui Gonsales de Klavixoning Samarqanddagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi asari 1403–1406-yillardagi bevosita kuzatuvlarga asoslangan bo‘lib, saroy bazmlari, malikalarning ishtiroki va o‘sha davr saroy hayotining jonli manzarasini aks ettiradi [8]. Muallif, ayniqsa, saroy malikalari hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rni haqida e‘tiborga molik ma‘lumotlar keltirgan. Venger olimi Xerman Vamberining “Buxoro

yohud Movarounnahr tarixi” ham mazkur masalaga murojaat qiluvchi manba sifatida ahamiyatlidir [9].

XV asr tarixchisi Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asari esa mazkur mavzu uchun eng muhim birlamchi manba hisoblanadi. Ikki jildli bu asar 1394–1470-yillar voqealarini qamrab oladi; uning qiymati va ishonchliligi XV–XVI asrlardayoq tarixchilar e’tiborini o’ziga jalb etgan. Asarning ikkinchi jildi, sharqshunos olim A. O’rinboyev ta’kidlaganidek, ayniqsa qimmatli va originaldir [10], [11]. Fosix Ahmad al-Havofiyning “Mujmali Fasixiy” asari ham (akademik D. Yusupova tomonidan rus tiliga tarjima qilingan, 1980) 1336–1442-yillar oralig’ida yashagan taxminan o’ttizga yaqin temuriy malikaning nomini keltirib, ularning kelib chiqishi, nikohi va farzandlari haqida ma’lumot beradi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar orasida B. Ahmedovning “Tarixdan saboqlar” [12] va “Amir Temurni yod etib” [13], A. Ahmedovning “Ulug’bek Muhammad Tarag’ay”, shuningdek, A. Ziyoning “O’zbek davlatchilik tarixi” asarlari Bibixonim va Gavharshod begim haqida qisqa, ammo qimmatli ma’lumotlar beradi. Badiiy adabiyotda esa G. N. Golubovning “Ulug’bek” [14] risolasi va Sh. Isaxonovanning ikki qismli “Turon malikasi” romani temuriy malikalar obrazlarini badiiy tilda qayta yaratishga uringan asarlar sifatida alohida o’rin tutadi [15].

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, mavjud manbalar asosan siyosiy tarix nuqtayi nazaridan yozilgan bo’lib, saroy ayollarining taqdiri ularda ikkinchi darajali mavzu sifatida keltiriladi. Ayollarning mustaqil biografiyasi, psixologiyasi va ijtimoiy faoliyatiga bag’ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlar hanuz yetarli emas. Bu esa ushbu maqolaning ilmiy yangiligini asoslaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot sifatiiy-tahliliiy yondashuv asosida amalga oshirildi va unda quyidagi usullardan foydalanildi:

– **birlamchi manbalar tahlili:** XV–XVI asrlarda fors va arab tillarida yozilgan tarixiy xronikalar (Abdurazzoq Samarqandiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh) o’zbek tilidagi tarjimalari orqali o’rganildi;

– **qiyosiy tahlil:** tarixiy manbalar va badiiy asarlardagi ayollar obrazi bir-biri bilan qiyoslanib, o’xshashlik va farqlar aniqlandi;

– **tarixiy-biografik usul:** alohida malikalarning hayoti, faoliyati va davr voqealaridagi o’rni tizimli ravishda rekonstruksiya qilindi;

– **manbashunoslik tahlili:** ikkilamchi manbalar va birinchi darajali manbalar ishonchliligi va to’liqligi jihatidan baholandi.

Tadqiqotda fors, arab va o’zbek tillaridagi manba matnlariga tayanildi, xorijiy manbalar ham qo’shimcha dalil sifatida jalb etildi. Mavzu bo’yicha hali o’rganilmagan jihatlar ham tadqiq jarayonida e’tiborga olindi.

NATIJA

Tarixiy manbalardagi temuriy malikalar

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn” asarida Gavharshod begimning ismi eng ko’p uchraydiki, bu malikaning o’z davri tarixiy voqealarida yetakchi o’rin egallaganini isbotlaydi. Temuriylar xonadoniga mansub malikalar va oliynasab ayollar ichida saroyning bosh malikasi Saroymulk xonim (Bibixonim) alohida o’rin egallaydi. Tarixiy manbalarga ko’ra, Amir Temur davlat chegaralarini kengaytirish uchun kechgan jangu jadallarda poytaxtdan uzoqda bo’lgan vaqtlarda davlat ishlarini idora qilishda Saroymulk xonimning tadbirkorligi, oqilligi va zukkoligiga ishongan.

Bibixonim temuriylar davri ilmi va maorifi rivojiga hissa qo’shgan malika sifatida ham tarixda o’z o’rnini egallagan: uning homiyligida Samarqandda bir nechta madaniy-ma’rifiy inshootlar, jumladan, o’z mablag’lari hisobidan qurilgan madrasa va uning yonida jome masjidi barpo qilingan. Ammo Sohibqironning vafotidan so’ng, Ibn Arabshoh ma’lumotlariga ko’ra,

temuriylar saroyining birinchi malikasi Bibixonim Amir Temurning nabirasi Xalil Sulton Mirzoning xotini Shod Mulk tomonidan zaharlab o'ldirilgan. Bu hol saroy siyosatining shafqatsiz tabiatini ko'rsatadi.

Xuroson hukmdori Shohruh Mirzoning umr yo'ldoshi va Ulug'bek Mirzoning onasi Gavharshod begim ham o'z davrining barcha muhim voqealari markazida turgan malikadir. G. N. Golubov o'z risolasida Ulug'bekning tilidan: "Onamning ismi-yu, ko'zlarigina gavhar emas, balki aqli ham gavhar ekan", degan iborani keltiradi. Bu baho malikaning intellektual qudratini yorqin aks ettiradi. Gavharshod begimning hukmronlik uslubi erining muloyim tabiatiga zid bo'lgan: Isaxonova uni "qat'iyatli, shaddod, lekin g'oyat tadbirkor, ishbilarmon, aqlli ayol" sifatida tasvirlaydi.

Milkat og'a (asl ismi Mulk og'a) Xizr o'g'lonning qizi bo'lib, avval Umarshayx Mirzoga, so'ngra Shohruh Mirzoga turmushga chiqqan. Uning homiyligida Hirot va Balxda shifoxona, "Dor ul-hadis" nomli xonaqoh, ikkita hammom, rabot va madrasa qurilgan; Alisher Navoiyning e'tibori tufayli bu inshootlar asr oxirigacha obod bo'lib turgan. Milkat og'a 1441-yilda vafot etgan va o'zi qurdirgan Balxdagi madrasa gumbazi ostiga dafn etilgan.

MUHOKAMA

Sh. Isaxonovanning "Turon malikasi" (2014) romani temuriy malikalar – Bibixonim, Tuman og'a, Ruhparvar og'a va Gavharshod begim obrazlarini badiiy tarzda qayta yaratadi. Ibrohim G'ofurov [16] ushbu asarga yozgan so'ngso'zida muallifning yondashuvi haqida shunday baho beradi: "Uning badiiy fantaziyasi voqelikni tagi yo'q yolg'on oldi-qochdilar bilan to'ldirmaydi... tarixni lirik epkin bilan qamrab oladi". Bu baho muallifning tarixiy manbalar bilan vijdonan ishlashini ta'kidlaydi.

Roman Gavharshod begimning psixologik portretini chuqur ochib beradi: onaning o'g'li — Ulug'bek bilan munosabatidagi keskinlik, saroy intrigalari va hukmdorlik mas'uliyati asarda tarixiy-badiiy jihatdan ishonarli tarzda yoritilgan. G. N. Golubovning "Ulug'bek" risolasi ham bu mavzuga murojaat qiladi, biroq malika obrazi unda asosiy qahramon Ulug'bekning taqdiri nuqtayi nazaridan ikkinchi o'rinda beriladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi qonuniyatlar aniqlandi. Birinchidan, Rizouddin Faxriddin o'g'li va Fosix Ahmad al-Havofiy kabi mualliflar tomonidan keltirilgan ma'lumotlar temuriy malikalarning nafaqat oilada, balki davlat boshqaruvida ham anchayin baland o'rin egallaganidan guvohlik beradi. Ikkinchidan, Klavixo kabi bevosita kuzatuvchining kundaliklari Sharq manbalarida aksi kam uchraydigan saroy hayotining real manzarasini berib, ularga qimmatli qo'shimcha ma'lumot bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan, Zahiriddin Muhammad Bobur va Xondamir asarlarida ham saroy ayollari haqidagi epizodik ma'lumotlar keng siyosiy-tarixiy kontekstda berilgan bo'lib, bu ularning davlatchilik jarayoniga ta'sirini anglashga yordam beradi [17].

Shu bilan birga, manbalar tahlili ayrim muhim bo'shliqlarni ham ko'rsatadi: asarlarning aksariyatida malikalar mustaqil subyekt sifatida emas, balki asosiy erkak qahramonlar bilan bog'liq holda tasvirlangan. Ularning shaxsiy fikri, qabul qilgan qarorlari va emotsional dunyosi tarixiy manbalarda deyarli aks etmagan. Bu esa kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Ushbu tadqiqot temuriylar davri saroy ayollarining tarixiy manbalarda va badiiy adabiyotda aks ettirilishi bo'yicha bir necha muhim xulosalarga olib keldi. Birlamchi manbalar — Abdurazzoq Samarqandiy, Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy va Klavixo — temuriy malikalar, jumladan, Bibixonim, Gavharshod begim va Milkat og'aning davlat boshqaruvi, madaniy-ma'rifiy qurilish va saroy hayotida muhim rol o'ynaganini isbotlovchi dalillar beradi.

Badiiy adabiyotda esa Isaxonova va Golubov kabi mualliflar tarixiy manbalarga tayanib, malikalar obrazlarini badiiy tarzda qayta yaratgan, biroq malikalar subjektivligi va ichki

dunyosi hanuz to'liq yoritilmagan. Rizouddin Faxriddin o'g'li va Ziyo kabi zamonaviy olimlarning tadqiqotlari bu bo'shliqni qisman to'ldirsa-da, temuriy saroy ayollariga bag'ishlangan maxsus monografik tadqiqotlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Kelajak tadqiqotlari uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi: temuriy malikalarning maktublari va vaqf hujjatlari orqali siyosiy kommunikatsiyasini o'rganish; ularning farmonlari va homiylik faoliyatini arxiv manbalari asosida tahlil qilish; shuningdek, Sharq va G'arb manbalari qiyosida gender tarixini yoritish. Ushbu tadqiqot O'zbekiston tarixining kam o'rganilgan sahifalarini yoritishga hissa qo'shib, temuriylar davri ayollari tarixiga bo'lgan ilmiy qiziqishni yanada kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rizouddin Faxriddin o'g'li. Mashhur xotunlar. – T.: Navro'z, 2019.
2. Ahmedov A. Mirzo Ulug'bek Tarag'ay (Buyuk siymolar). – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Ahmedov A. Ulug'bek Muhammad Tarag'ay. – T.: Xalq merosi, 1994.
4. Ziyo A. O'zbek davlatchilik tarixi: eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2000.
5. Nizomiddin Shomiy. Zarafshon / tarj. Yu. Hakimjonov; tahr. A. O'rinboyev. – T.: O'zbekiston, 1996.
6. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / tarj. A. Ahmad, X. Bobobekov. – T.: Sharq, 1997.
7. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-makdur fi tarixi Taymur: I–II kitob / tarj. U. Uvatov. – T.: Mehnat, 1992.
8. Klavixov R. G. de. Samarqandagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406). – T.: O'zbekiston, 2010.
9. Bamberi X. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T., 1990.
10. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai baxrayn. – T.: O'zbekiston, 2008. – II jild, 1-qism.
11. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai baxrayn. – T.: O'zbekiston, 2008. – II jild, 3-qism.
12. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994.
13. Axmedov B. Amir Temurni yod etib. – T.: O'zbekiston, 1996.
14. Isaxonova Sh. Turon malikasi: tarixiy roman. – T.: Kamalak-Press, 2014.
15. Goluboev G. N. Ulug'bek. – M.: Yosh gvardiya, 1962.
16. G'ofurov I. O'rtada Bibixonim turar edi... // Isaxonova Sh. Turon malikasi. – T.: Kamalak-Press, 2014. – B. 474–476.
17. Xandamova M. Tarixi elchi Nizomshoh. – T.: Yangi nashr, 2012.